

PEDAGOGIK MAHORAT

4(1)
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2025-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

MUNDARIJA

Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU		
KAMOLOVA Shirinoy Usarovna	Oila, mahalla va maktab hamkorligida xulqi og‘ishgan bolalar bilan ishlashning imkoniyatlari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA		
FAYZIYEVA Umida Asadovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishda emotsional intellektning roli	14
AXMEDOVA Nasiba Achilovna	Maktabgacha yoshdagi giperaktiv bolalarning psixologik va ijtimoiy moslashuv xususiyatlari	18
ASHIROVA Anorgul Ismoilovna	Neyropedagogika - pedagogikaning yangi yo‘nalishi sifatida: texnologiyalar, tamoyillar va metodlari	24
AMIRKULOVA Zebuniso Mustafakulovna	So‘z ma‘nolarini tahlil qilishda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish	28
ATADJANOV Mamirjon Yusupovich	Kibertahdidlar va axborot psixologik xavfsizlik muammosi	33
AXMEDOV Axat Axrorovich, QUDRATOV Elmurod Abduxalimovich, BOZOROVA Laylo Shamsiddin qizi	Bo‘lajak fizika o‘qituvchisini tayyorlashning zamonaviy metodologik va eksperimental imkoniyatlari	38
AZIMOVA Nasiba Ergashovna	Bo‘lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlar	42
BAQOYEV Olim Otayevich	Kasbiy ta‘lim tizimida malakaviy amaliyotlar bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida	48
BARATOV Nasriddin Karshibayevich	Intellektning o‘quvchi shaxsida psixologik qiyofasi tuzilishining ahamiyati	52
CHORIYEVA Dilnoza Ulug‘bek qizi	Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari	57
CHORIYEVA Zuhra Tolib qizi, PIRBOBOYEVA Dilorom O‘rinboyiyevna	Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish	61
DAVLATOVA Zebo Haydarovna	Zamonaviy gadjetlarning maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy-irodaviy sohasiga ta’siri	65
EGAMOVA Gulnoza Istam qizi	Talabalarga ekologik tarbiya berishda turli yondashuvlar: barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalarni o‘rgatish misolida	69
ESHNAEV Nortoji Jumayevich	Innovatsion ta‘lim muhitida mobil mutaxassis tayyorlash va uning nazariy jihatlari	75
G‘TYASOVA Nargiza Yunus qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirish texnologiyasi	79
IBRAGIMOV Sherzod Egamberdiyevich	Yosh harbiy xizmatchilar armiya hayotiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	84
CHORIYEVA Zuhra Tolib qizi, IKROMOVA Sarvinoz Irkin qizi	Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish	89
IBRAGIMOV Sherzod Egamberdiyevich	Harbiy xizmatchi xodimlar individual psixologik xususiyatlarining kasbiy kompetentlik rivojlanishidagi ahamiyati	93
MADAMINOVA Yarkinoy Saparbayevna, QALANDAROVA O‘rinposhsha Yuldoshevna	Kompyuter texnologiyalarining texnologiya darslaridagi o‘rni	97
MANNAPOVA Nargiza Shakirovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida	101

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Azimova Nasiba Ergashovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Ushbu maqolada “metodologik yondashuv” tushunchasi, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, pedagogik fikrlar va mulohazalar, innovatsion faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, bo‘lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlar, metodologiya sohasi va maxsus-ilmiy sohani bir-biridan farqlashning ahamiyati, bo‘lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda sinergetik, tizimli va faoliyatli metodologik yondashuvlar mazmun-mohiyati haqida ilmiy ma‘lumotlar hamda tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “metodologik yondashuv”, pedagogik fikrlar, innovatsion faoliyat, sinergetik, tizimli va faoliyatli metodologik yondashuvlar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

В данной статье освещены понятие «методологический подход», анализ литературы по теме, педагогические идеи и рассуждения, потребность в инновационной деятельности, методологические подходы, направленные на развитие инновационной деятельности будущих педагогов, значение разграничения сферы методологии и специально-научной области, а также научные сведения и рекомендации о сущности синергетического, системного и деятельностного методологических подходов в развитии инновационной деятельности будущих педагогов.

Ключевые слова: «методологический подход», педагогические идеи, инновационная деятельность, синергетический, системный и деятельностный методологические подходы.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE EDUCATORS

This article covers the understanding of “methodological approach”, analysis of thematic literature, pedagogical thoughts and reflections, the need for innovative activities, methodological approaches aimed at developing innovative activities of future educators, the importance of distinguishing between the field of methodology and the special-scientific field, scientific data and recommendations on the content of synergistic, systematic and functional methodological approaches in the development of innovative activities of future educators.

Keywords: “methodological approach”, pedagogical thoughts, innovative activities, synergistic, systematic and functional methodological approaches.

Kirish. Metodologiya tushunchasi o‘zida ikki jihatni aks ettiradi: birinchisi bilish faoliyati natijalari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi mazkur faoliyatning o‘zi hisoblanadi. Har bir fanning o‘ziga xos kategoriyalari, tushunchalari, tadqiqot predmeti, obyekti va fanshunolikning umumiy qoidalari, ilmiylik mezoni ifodalanishidir. Globallashuv jarayonida fanning rivojlanishi, ilmiy tadqiqot tili, kategoriyalari uning umumiy jahonshumul va xususiy muayanligi muhim o‘rin tutadi.

Metodologik tadqiqot aynan tadqiqiy tavsifga ega bo‘lishi lozim, ya‘ni istalgan ilmiy tadqiqotga qo‘yiladigan talablar to‘liq bajarilishi lozim, umumiy mulohaza va konspektiv xarakterga ega bo‘lib qolmasligi zarur. Pedagogika sohasida konkret metodologik tadqiqot xususiy maxsus predmetiga ega va u yoki bu fan bo‘limlari holati, amaliyot uchun yo‘naltirilgan me‘yoriy materiallarni asoslash xarakteri va sifati, pedagogik konsepsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dalillarida aks etuvchi empirik ma‘lumotlarga tayanadi [1].

Empirik tavsifdagi (metodologik empiriya) metodologik bilimlar ilmiy bilish usullarini qo‘llash haqidagi tadqiqotchining fikr-mulohazalari, ya‘ni metodologik refleksiya natijasi sifatida aniq maxsus-ilmiy tadqiqotlar jarayonida ham shakllanadi. Qachonki, u shu tarzda tanlangan obyekt bo‘yicha o‘z harakatini kuzatib borsa, mazkur turdagi bilimlar metodologik ta‘minot tarkibiga qo‘shilib boradi. Ularning o‘ziga xosligi maxsus rejalashtirilgan metodologik ishlar hosilasi emas, boshqa (maxsus-ilmiy) obyektga maqsadli tadqiqot mahsuli garovi sifatida namoyon bo‘lishidadir. Empirik bilimlar obyektga bog‘langan bo‘lib shuning uchun umumiy tavsifga ega bo‘lmaydi. Ularni qo‘llash mazkur tadqiqot vazifalari bilan cheklanadi [2].

Metodologiya sohasi va maxsus-ilmiy sohani bir-biridan farqlash zarur: metodologik tahlil obyekti va maxsus-ilmiy obyekt tahlili, metodologik muammolar va maxsus-ilmiy muammolar, metodologik va maxsus-ilmiy tadqiqotlar. Metodologik faoliyat sohasida maxsus-ilmiy tadqiqotlar ta’minotini metodologik tadqiqotnikidan farqlash zarur.

Axborotlar globallashuvi sharoitida fanning turli ma’lumotlar bilan boyib borishi, axborotlarni tahlil va talqin qilishga erkinlikning yuqori darajada berilishi boshqa fanlar singari pedagogika faniga turli nuqtai nazardan, rakursdan qarash tuyg’usini qaror toptirmoqda. Hatto so’nggi yillarda mazkur fanga uning tabiatiga mos kelmaydigan tushuncha, yondashuvlarni zo’rma-zo’raki singdirishga urinishlar ham ko’zga tashlanadi. Pedagogika fanining fundamental xususiyatini saqlab qolishning asosiy yo’li – uning metodologiyasini aniqlashtirish va to’g’ri tushuntirib berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo’ladiki, pedagogikada “metodologiya” atamasini tavsiflashga doir olimlarning turli nuqtai nazarlari mavjud. Masalan, V.I.Zagvyazinskiyning fikricha, “metodologiya pedagogik bilimlar va ularni qo’lga kiritish jarayonlari haqidagi ta’limotdir”. U o’zida:

- 1) pedagogik bilimlar tuzilmasi va funksiyalari haqidagi ta’limotni;
- 2) metodologik mohiyatga ega original, tayanch, fundamentlar, falsafiy, umumilmiy va pedagogik qoidalarni (nazariya, konsepsiya, farazlar);
- 3) pedagogik bilish metodlari haqidagi ta’limotni (tor ma’noda) ifoda etadi [3].

A.M.Novikovning fikricha, “pedagogika metodologiyasi nafaqat pedagogika nazariyasining umumiy tamoyillari, yondashuvlari va metodlarini, balki mazmunni takomillashtirish va yangilashga doir amaliy takliflarni ko’proq o’zida aks ettiradi. Ya’ni, ta’limiy faoliyat metodologiyasiga aylandi va eng avvalo, ta’lim tizimlarining o’zini rivojlantirish, yangilash, nostandart vaziyatlarda pedagoglar uchun mo’ljalni olish bilan bog’liq amaliy jihat ustuvorlik kasb etmoqda” [4]. Olimlarning masalaga bunday tarzda yondashuvi pedagogning innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish jarayonlarini metodologik asoslash uchun alohida muhimlik kasb etadi.

E.V.Ushakovning fikricha, “yondashuv” kategoriyasi yaxshi ishlanmagan bo’lib, u metodologik tushunchalardan biri sifatida “metod”, “dastur”, “algoritm” kabi atamalar bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladi. Mazkur sanab o’tilgan kategoriyalar ular yordamida yangi bilimlar qo’lga kiritiladigan nazariy yoki empirik chora-tadbirlarni bayon etish usullariga taalluqlidir. Biroq Ye.V.Ushakov [5] quyidagi jihatlarni hisobga olish orqali “yondashuv” va “metod” tushunchalarini farqlashni taklif etadi:

- 1) yondashuv – nisbatan kamroq shakllangan metodologik holat, qachonki muammoni aniq bir metodlar yordamida hal qilish imkonini bo’lmasa, uni yechish uchun olim alohida yondashuvga murojaat qiladi;
- 2) yondashuv – nisbatan kamroq rasmiylashgan metodologik jihat, u muammoning muqobil yechimlarini talab etadi;
- 3) yondashuv – o’zida metodlar majmui, shuningdek, nazariy asoslar, tushunchalar, tamoyillarni birlashtiruvchi nisbatan yirikroq metodologik holat.

Olimlar orasida “metodologik yondashuv” tushunchasini tadqiqotchining metodologik pozitsiyasi sifatida talqin qilinadi. Pedagogikada ilmiy ishlanmalar mualliflari turli metodologik yondashuvlardan foydalanishadi. Ana shu bilan bog’liqlikda pedagogning innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish uchun metodologik yondashuvlarni tanlash zaruriyati yuzaga keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, innovatsion salohiyat reallashgan (o’tmish), reallashayotgan (hozirgi) va reallashmagan (kelajak) ko’rinishlarda bo’lishi mumkin. Ana shu jihat bilan bog’liqlikda metodologik yondashuvlarni tanlash ham salohiyatning ko’rib chiqilayotgan vaqt bilan bog’liqlikda tahlil qilishga muvofiq bo’lishi kerak.

Dastlab kelgusidagi innovatsion salohiyatni rivojlantirish bilan bog’liqlikda metodologik yondashuvlarni aniqlashtirib olish lozim. Chunki salohiyatning bu ko’rinishi rivojlanish strategiyasi, istiqbolni belgilash demakdir. Mazkur maqsadga erishish uchun umumimetodologik, ya’ni tizimli va sinergetik yondashuvlar ko’proq mos keladi.

Muhokama. Reallashadigan (hozir) salohiyat tavsifi uni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi qadriyatli yo’nalganlik, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish va muhitni talab etuvchi faoliyatga yo’naltirilgan asosni tashkil etadi. Bunday holatda faoliyatli, aksiologik, akmeologik va muhitga yo’naltirilgan kabi metodologik yondashuvlarning zaruriyatini taqozo etadi.

Yuqorida qayd etib o’tilgan bo’lajak o’qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga doir yondashuvlarning har biriga alohida to’xtalib o’tamiz.

Tizimli yondashuv. Ilmiy adabiyotlarda “tizim” tushunchasiga ko’plab ta’riflar berilgan bo’lib, ular orasida T.I.Shamova, T.M.Davidenko, R.Axliddinov, S.Turg’unov, N.Muslimov, Sh.Zufarovlar tomonidan

mazkur tushunchaga berilgan izohlar zamonaviy metodologik yondashuvlarni o‘zida aks ettirganligi bilan tavsiflanadi.

Tizim – nafaqat o‘ziga xos xususiyatga ega tarkibiy qismlar, balki yangi integrativ sifatleri bilan shartlangan o‘zaro harakatdagi obyektlar yig‘indisi. Tizim o‘zida quyidagi belgilarni aks ettiradi: tuzilmaning, ya‘ni elementlar orasida aniq aloqa va munosabatlarning mavjudligi; integrativ sifatning mavjudligi (tizimlilik); maqsadga yo‘nalganlik; kommunikativ xususiyatlarning mavjudligi.

T.I.Shamovanning ta’kidlashicha, tizim – bu har birining alohidaligini inkor etuvchi, yangi integrativ sifatga ega o‘zaro aloqador elementlarning maqsadga qaratilgan yaxlitligi; tashqi muhit bilan bog‘langan yaxlitlik.

N.A.Muslimovning fikricha, tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birlashtirilgan) muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o‘zaro ta’sirlashuv va bog‘liqlikda bo‘lgan ko‘plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir. “Tizim” bu muayyan tartibga keltirilgan elementlar to‘plami bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holatda, muayyan yaxlit birlikni hosil qiladi.

“Tizim” tushunchasiga berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, “tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi bo‘lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko‘ra obyektning bir butun, yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Tadqiqot obyektini o‘rganishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasida o‘zaro aloqador va o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi [6].

Bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga tizimli yondashuv aniq va ishonarli ma’lumotlar olish uchun xilma-xil ilmiy metodlarni qo‘llash, kerakli yo‘nalishda faoliyatni tashkil etish, loyihalashning original metodlaridan foydalanish va tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan hodisani uzluksiz rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari tizimli yondashuv rivojlanish maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, mazkur yo‘nalishdagi ish mazmunini tanlash, rivojlanish vositalari va shart-sharoitlarini ajratib olish, shuningdek, innovatsion salohiyat tuzilmasini aniqlashtirishga yordam beradi.

Sinergetik yondashuv. Sinergetika mustaqil fan sifatida XX asrning 70-yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan. U murakkab tizimlarning tartibsiz holatdan tartiblangan holatga o‘tish jarayonlarini o‘rganadi va ushbu tizim elementlari o‘rtasidagi shunday bog‘lanishlarni ochib beradi, bunga ko‘ra ularning tizimdagi umumiy ta’siri o‘z ta’sirida tizimning harakat funksiyalarining oddiy yig‘indisidan oshadi. Elementlar alohida olinadi. Hozirgi vaqtda sinergetika ijtimoiy fanlarga, xususan, pedagogikaga tobora ko‘proq tarqalmoqda. Sinergetika dunyoga qarashning biroz boshqacha usulini taklif qiladi. Sinergetik tafakkurning qadriyati shundaki, u dunyoqarashning yaxlitligini, dunyoni har tomonlama idrok etishni ta’minlaydi.

Pedagogikada sinergetika metodologik yondashuvlardan biridir, chunki yaxlit pedagogik jarayonda maqsadli o‘zaro ta’sir doirasida sinergetikaning ta’siri kuzatiladi.

“Sinergetika” atamasini fanga German Xaken kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o‘zaro ta’sirga kirishuvchi ko‘p miqdordagi qismlar, komponentlar va ichki elementlardan tarkib topuvchi tizimlarni o‘rganuvchi fan sifatida belgilagan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo‘luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, informatsion kaos borgan sari ko‘proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda innovatsion jarayonlar maqsadga yo‘naltirilgan boshqaruvga bo‘ysunishi mumkin emas. Innovatsion salohiyatni diagnostika qilish, uning natijalarini o‘lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy pedagogik vaziyatdan vaqt bo‘yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida tashqi muhit ta’sirida shaxsning qaysi motivatsion – qadriyatli tizimlari o‘zgarishga uchrayotganligini, pedagogning ijodiy izlanishlari, psixologik to‘siqlarni yengishi, innovatsion tajribani egallashi natijalari qanday bo‘layotganligini aniqlashi oson emas.

Sinergetik yondashuv innovatsion salohiyatni rivojlantirish jarayonini nohiziq tushunish, innovatsion jarayonlar ochiqqligini, ahamiyat hosil qiluvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo‘yadi. Innovatsion salohiyatni rivojlantirishga sinergetik yondashuvning o‘ziga xos xususiyati – o‘qituvchining yangiliklarni o‘zlashtirishining bir qancha yo‘llari imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror vaziyatlardan kelib chiqishdir.

Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirishga sinergetik yondashuv mazkur jarayonni yaxlitlik, ochiqlik va kreativlik tamoyillari asosida loyihalashga imkon beradi.

Faoliyatli yondashuv. Ma’lumki, faoliyat inson rivojining bosh sharti bo’lib, u ta’lim oluvchilarning rivojlanishi va pedagog professionalizmini oshirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonlarni tahlil qilish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

“Faoliyat orqali o’rganish” Konsepsiyasi J.Dyuiga tegishli bo’lib, uning asosiy qoidalariga ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini hisobga olish, fikrlash va harakat orqali o’qitish, qiyinchiliklarni yengib o’tish orqali va hamkorlikda qo’lga kiritilgan bilish va o’rganish kabilarni kiritish mumkin.

Kattalar ta’limiga nisbatan qo’llanilganda faoliyatli yondashuvda hamkorlik-sheriklikka asoslangan faoliyat sifatida o’qitishni tan olishga asoslangan. Bunda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish bo’yicha faol mustaqil – o’quv faoliyati yetakchi rol o’ynaydi. Faoliyatga yo’naltirilgan yondashuvning mohiyati “barcha pedagogik chora-tadbirlar faoliyatni jadal, doimiy murakkablashtirish asosida tashkil etish yoki faqat shaxsiy faoliyat orqali inson fan va madaniyat, olamni bilish va qayta anglashni o’zlashtiradi, shaxsiy sifatlarni shakllantiradi va takomillashtiradi” kabi yo’nalishlardan iborat.

Shuni alohida qayd etib o’tish lozimki, faoliyat mazmuni shaxsning qadriyatli yo’nalganligini ta’minlaydi. Bu faoliyatli yondashuvda katta yoshli ta’lim oluvchilar “ta’lim jarayonining faol sub’yekti, shaxsiy faoliyati va o’z-o’zini rivojlantirishga qobiliyatli” ekanligi bilan bog’liq.

Bo’lajak o’qituvchilarning innovasion salohiyatini rivojlantirishga faoliyatli yondashuv quyidagi imkoniyatlarni taqdim yetadi:

1) uzluksiz kasbiy rivojlanish yoki mustaqil ta’lim tizimi uni modernizasilashning motivlari, maqsadi, vosita va usullariga ega o’qituvchining mustaqil faoliyati sifatida qaraladi;

2) o’qituvchi faoliyat sub’yekti sifatida uzluksiz kasbiy o’z-o’zini rivojlantiruvchi shaxs sifatida talqin qilinadi;

3) faol o’qish va o’rganishni o’qituvchining dolzarb kasbiy vazifalari bilan integratsiyalash.

Faoliyatli yondashuv quyidagilarga erishishni ta’minlaydi:

- o’qituvchilarni faollik, mustaqillikni namoyon etish imkoniyatini beradigan faol ijodiy faoliyatga jalb etish;

- jamoada ishlash ko’nikmalarini takomillashtirish;

- o’zining o’quv va bo’sh vaqtini samarali tashkil etish;

- ijtimoiylashuv va kasbiy o’z o’rnini belgilash.

Aksiologik yondashuv pedagogikada ko’pincha “qadriyatli”, “qadriyatli yo’naltirilgan” tarzda qo’llaniladi. V.A.Slastyenin, Ye.N.Shiyanov, B.Xodjaev, Z.Taylanova kabi ko’plab olimlar qadriyatli yo’nalganlikning shaxs rivojidagi o’rni va ahamiyatini yoritib berishgan.

Natijalar. Aksiologik yondashuv qadriyatlar, ijtimoiy, madaniy omillar va shaxsni birlashtiradigan mexanizm. Pedagogikaga tatbiqan yetuk pedagog olim I.F.Isaev qadriyatlar tasnifini ishlab chiqqan. Ana shu tasnifga asoslanib, maktab o’qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga doir quyidagi qadriyatlar tasnifini keltirib o’tish mumkin:

- maqsadli qadriyatlar (innovatsion pedagogik faoliyatning mohiyati);

- vositali qadriyatlar (innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish usul va vositalarining ahamiyati);

- munosabat qadriyatlari (innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy mexanizmi sifatida munosabatning ahamiyati va mohiyati);

- bilimga doir qadriyatlar (o’qituvchining innovatsion faoliyatida psixologik-pedagogik bilimlarning roli);

- sifat qadriyatlari (innovatsion pedagogik faoliyati sifatini oshirishda shaxsiy sifatlarning ahamiyati).

Aksiologik yondashuv motivatsion-qadriyatli sohani o’qituvchi innovatsion salohiyatining tarkibiy qismini aks ettiruvchi shaxsiy-kasbiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qarashga imkon beradi.

Aksiologik yondashuvning asosini o’qitish yoki mustaqil ta’lim jarayonida qadriyatga aylanadigan tizim hosil qiluvchi elementlardan iborat o’zaro aloqador, o’zaro bir-biriga bog’liq va o’zaro harakatdagi olam haqidagi ta’limot tashkil qiladi.

Aksiologik yondashuv inson hayotidagi qadriyatlar pedagogik jarayonda qabul qilish va amalga oshirishni ta’minlaydi. Ta’lim mazmuniga olamga qadriyatli munosabat tajribasini kiritish vazifasini qo’yadi.

Akmeologik yondashuv professionalizmnining yuqoriroq darajasini o’rganish, yuksak darajada o’z-o’zini namoyon etish va kasbiy o’z o’rnini belgilash, kasbiy, shu jumladan, innovatsion salohiyatni rivojlantirish, shuningdek, bunday imkoniyat uchun sharoit yaratish, o’qituvchining kasbiy standartini ishlab chiqish va asoslash, pedagogik faoliyatning innovatsionlashuviga doir pedagogik pozitsiya va talablarni modellashtirish masalalarini ko’rib chiqadi.

Akmeologik yondashuv asosida mutaxassisning kasbiy o'sish imkoniyatlari va shart-sharoitlari ko'plab olimlar (G.Ernazarova, B.Ma'murov, B.Ananev, A.Bodalev, A.Derkach va boshqalar) tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mazkur yo'nalishda ayni paytda ham ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Masalan, T.A.Polozova akmeologik yondashuv yordamida ham shaxs, ham pedagogik faoliyat sub'yekti sifatida oliy ta'lim professor-o'qituvchisining turli funksiyalaridagi o'zgarishlarni o'rgangan. U oliy ta'lim professor-o'qituvchilari innovatsion salohiyatining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatgan: “innovatsion xulq-atvor, fikrlash va rivojlanishdagi faollik; professor-o'qituvchining kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishi (innovatsion mahorat darajasiga ko'tarilish, kasbiy akmeologik erishish); innovatsion o'z-o'zini rivojlantirish va professor-o'qituvchining mustaqil ta'limi, takrorlanmas individuallik va innovatsionlikni yuzaga chiqarish”.

Akmeologik yondashuv nuqtayi nazaridan innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun ta'lim tashkilotidagi innovatsion muhitning mohiyati va roli M.I.Plutina tomonidan tadqiq etilgan. Uning fikricha, akmeologik yondashuv asosiga qurilgan ta'limiy muhit bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanish jarayonini optimallashtirish imkoniyatini ta'minlaydi; global ta'limiy muhitda o'qituvchini integratsiyalash jarayonini faollashtirishga imkon beradi; bo'lajak o'qituvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmini asoslab beradi.

Umuman olganda, akmeologik yondashuv insonning shaxsiy-kasbiy o'sishida “akmeologik salohiyat”ni rivojlanishida alohida rol o'ynaydi. Tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'z-o'zini takomillashtirishga motivatsiyaning mavjudligi, o'zining kasbiy faoliyatida yuksaklikka erishishga intilish o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi kuchsiz tomonlarining o'rnini to'ldirib, uni o'z ishinig ustasiga aylantirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, akmeologik yondashuv umuman salohiyat, shu jumladan, innovatsion salohiyatga egalikni yuqori darajada namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan o'qituvchining kasbiy faoliyat funksiyalarini bajarish jarayonlarini baholashga imkon beradi.

Insonning barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik faoliyat imkoniyatlarini o'rganish uchun muhitli yondashuvni qo'llash S.T.Turg'unov, Yu.S.Manuylov va V.A.Yasvinlar tomonidan taklif qilingan. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonlarining barcha sub'yektlariga ta'sir ko'rsatishning ishonchli strategiya va modellari bilan bog'liq ta'lim tashkilotidagi muhit, uning elementlarini tahlil qilish va baholash imkonini beradi.

N.V.Xodyakova muhitli yondashuvning quyidagi afzalliklarini ajratib ko'rsatgan: ichki va tashqi omillarni hisobga olish imkonini beradigan ta'limiy muhitni loyihalashda pedagogik jarayon barcha sub'yektlarining ishtirok etish huquqi; sub'yektiv faollikning namoyon bo'lishi.

O'z navbatida, S.A.Ivashenko va I.V.Ignatkovich muhitli yondashuvning quyidagi xususiyatlarini aniqlashtirgan;

- muhitli yondashuv kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash va takomillashtirishning moslashuvchan innovatsion muhitini yaratish imkonini beradi;

- o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayonlarini bevosita boshqaradi;

- ta'limiy muhit tashxis, loyihalash va natijalarni qo'lga kiritish vositasiga aylanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, yangiliklar kiritish sohasidagi qadriyatli yo'nalganlikning mavjudligi, shuningdek, pedagogik mahorat cho'qqisiga intilish bilan bog'liq o'qituvchining faol innovatsion faoliyati sharoitida uning mavjud innovatsion salohiyatini amalga oshirish imkonini beradi.

Shaxsiy yondashuv inson hayotiy faoliyatini aniqlab beruvchi, natijada barcha pedagogik ta'sirlarning “uyg'unlashgan tizimi” yuzaga keladigan individ ichki olamining noyobligini olg'a suradi. Mazkur yondashuv N.M.Egamberdieva, N.A.Alekseev, Ye.V.Bondarevskaya va S.V.Kulnevich va ko'plab olimlar tomonidan fundamental tadqiq etilgan.

Shaxsiy yondashuv individni barcha tashqi ta'sirlarni bartaraf etuvchi ichki sharoitlarning integrativ aloqasi sifatida tushunishni taqozo etadi. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda shaxsiy yondashuv pedagogik faoliyat sub'yektlarining o'z-o'zini namoyon etish va o'z-o'zini rivojlantirish nuqta nazaridan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishni talab etadi. U kerakli yo'nalishda shaxsning jadal rivojlanishi (bizning holatda innovatsion salohiyatning) uchun sharoit yaratish zarurligi bilan bog'liq. I.S.Yakimanskayaning fikrlariga qo'shilgan holda dastlabki bosqichda sub'yektiv tajriba zarur vaziyatda namoyon bo'ladi, keyin faoliyat maqsadi va mazmuni bilan uyg'unlashadi.

Shaxsiy yondashuvni amalga oshirish quyidagi talablarni nazarda tutadi:

- o'zining va o'quvchilarining individual xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini yaxshi bilish;

- shaxsiy fazilatlarining rivojlanishini tashxislash va monitoringini tashkil etish qobiliyati (munosabat, motivlar, qiymat yo‘nalishlari, fikrlash turi, o‘ziga bo‘lgan munosabat, atrofda odamlar va turli xil faoliyat turlari va boshqalar);

- o‘quvchilarni shaxsning progressiv rivojlanishiga hissa qo‘shadigan maxsus tashkil etilgan faoliyatga jalb qilish;

- talab qilinadigan kasbiy va pedagogik natijalarni cheklash sabablarini aniqlash va yo‘q qilish, o‘qitish va tarbiyalashning taktik usullarini qo‘llashda moslashuvchanlik;

- ta‘lim usullarini shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashi bilan mohirona uyg‘unligi;

- o‘z ishlarida mustaqillik va tashabbusni rivojlantirish va o‘quvchilarda faoliyatning ushbu xususiyatlarini rag‘batlantirish.

Antropologik yondashuv pedagogik hodisalar haqidagi bilimlarni inson tabiati haqidagi bilimlar bilan o‘zaro bog‘lashni taqozo etadi. Ushbu yondashuvning asosi pedagogik jarayonda shaxsning jismoniy, aqliy va ma‘naviy xususiyatlarini hisobga olish zarurati hisoblanadi. Shu munosabat bilan G.M.Kodjaspirova antropologik yondashuvning maqsadi inson ongini insoniylashtirish deb hisoblaydi. B.M.Bim-Bad ham faoliyatni “insonparvarlashtirish” zarurligi haqida alohida qayd etib o‘tgan.

Antropologik yondashuv o‘qituvchining innovatsion salohiyatini inson moslashuvchanligining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradigan, uning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z-o‘zini rivojlanishini hayotning strategik omili sifatida ta‘minlaydigan ijtimoiy antropologik fazilatlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Bundan tashqari, ushbu fazilatlar shaxsning innovatsion faoliyatga jalb qilishini ta‘minlaydi. Bularning barchasi o‘qituvchining innovatsion xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

V.E. Klochko va E.V. Galajinskiy shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi yaxlit tizim deb hisoblaydi, bu o‘qituvchining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirishning muhim shartidir. Tadqiqotchilarning fikricha: “Innovatsion xulq-atvor muammosi shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash insonning o‘zi va uni o‘rganishga harakat qilayotganlar uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish paydo bo‘ladigan shakl sifatida namoyon bo‘ladi”.

Madaniy yondashuv o‘qituvchining madaniyat bilan tabiiy va uzviy aloqadorligi bilan bog‘liq. Axir, aynan “ta‘lim madaniyatni o‘zlashtirish vositasidir, uni o‘zlashtirgan odam tashqi o‘zgarishlarga osonroq moslashadi, ba‘zi hollarda ularga qarshi tura oladi va jahon sivilizatsiyasi salohiyatini oshiradi. Aytishimiz mumkinki, inson madaniyat elementlarining yaratuvchisiga aylanadi, chunki u bizning hayotimizga g‘ayrioddiy, nostandart, yangi narsalarni olib keladi.

Ehtimol, shuning uchun E.V.Bondarevskaya va S.V.Kulnevich madaniyatning rivojlanishini jamiyat qadriyatlari tizimi sifatida talqin qilishgan, bu esa quyidagilarga yordam beradi:

- insonning har tomonlama rivojlanishi;

- uni ijodiy shaxs sifatida shakllantirish.

G.M.Kodjaspirova madaniy yondashuvni ijtimoiy-madaniy tajribaning takroran namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi, shuning ushuni o‘qituvchilardan tarixiy nuqtayi nazardan umuminsoniy qadriyatlarni tahlil qilish va tushunish asosida ta‘lim mazmunini tanlash talabini ilgari suradi. Madaniy yondashuv “madaniyatli shaxs”ni shakllantirish zarurati va imkoniyatini keng tadqiq etadi.

Xulosa. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga doir mazkur yondashuvlar tizimi mazkur pedagogik voqelikning namoyon bo‘lishidagi kuchli va zaif tomonlarini amalga oshirilgan, amalga oshirilayotgan va hali amalga oshirilmaganlik nuqtayi nazaridan o‘rganish va tushunish ushuni asos yaratadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatga zarur tuzatishlar kiritish shakl, metod va vositalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Ranjit Kumar. Research methodology a step-by-step guide for beginners. – Sage, New Delhi, 2011.
2. Розин В.М. Виды научных работ и критерии их оценки /В.М. Розин. – Высшее образование сегодня. – 2003. – № 2. – С. 18–22.
3. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактических исследований /В.И. Загвязинский. – М.: Педагогика, 1992. – 160 с.
4. Новиков А.М. Структура педагогической деятельности. Является ли деятельность педагога управленческой и почему? / А.М. Новиков //Инновационные проекты и программы в образовании. – 2010. – № 4. – С. 3–8.
5. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: Iqtisod dunyosi, 2018. – 170 b.
6. Тургунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасалари бошқарув фаолиятининг назарий асослари: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Т., 2007. – 362 б.